

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA
BELGILANGAN MUTANOSIBLIK TAMOYILI VA QO'LLASH
MASALALARI**

Raxmonov Z.Z

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda davlat organlari tomonidan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralarining **mutanosiblik tamoyiliga** rioya etilishi qat'iy belgilab qo'yildi [1]. Ushbu tamoyilga ko'ra, davlat organlari qabul qiladigan har qanday qaror yoki chora qonuniy maqsadlarga erishish uchun **mos va yetarli bo'lishi**, ortiqcha cheklov va zarar keltirmasligi zarur. Mazkur prinsip demokratik jamiyatda inson qadri va huquqlarini ta'minlashning muhim kafolatidir.

Qayd etish joizki, zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy doktrinada mutanosiblik prinsipi demokratiya, inson huquqlari va qonun ustuvorligi tamoyillarini hayotga tatbiq etishning zaruriy sharti sifatida qaraladi. Aslida mutanosiblik tamoyili nima va u qanday holatlarda qo'llanilishi haqida fikr yuritib ko'rsak. **Mutanosiblik tamoyili** davlat boshqaruvi va huquqni qo'llash faoliyatida shuni talab qiladiki, shaxsning huquqlarini cheklovchi yoki unga majburiyat yuklovchi har qanday chora haddan tashqari bo'lmasligi, ko'zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun eng zarur va yetarli darajada bo'lishi lozim. Bu tamoyil aslida adolat prinsipi bilan hamohang bo'lib, huquqiy ta'sir choralarining adolatlilikini ta'minlashga qaratilgan deyishimiz mumkin. Huquqshunos **F.Primovning** ta'kidlashicha, mutanosiblik prinsipi shaxsga qo'llanadigan choralar ortiqcha majburiyat yuklamasligi, uning huquq va erkinliklarini zaruratsiz cheklamasligini nazarda tutadi [2].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **20-moddasiga** yangi qoidalar kiritilib, davlat organlari faoliyatining inson huquqlariga muvofiqligi yanada mustahkamlandi. Xususan, 20-modda 4-qismida: "Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak" deb qat'iy belgilandi. Shu bilan birga, mazkur modda davomi sifatida qonunchilikdagi barcha noaniqliklar shaxs foydasiga talqin etilishi ham nazarda tutilgan. Bu normalar davlat organlari o'z vakolatlarini amalga oshirishda endilikda inson manfaatlarini ustuvor qo'yishi lozimligini konstitutsiyaviy darajada kafolatlamogda.

Mutanosiblik prinsipi aslida O'zbekiston qonunchiligida yangilik emas edi, ayrim qonunchilik hujjatlarida ilgari ham mavjud bo'lgan. Masalan, **"Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida** ma'muriy organlar jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan choralar qo'llaganda, ularni ko'zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va yetarli tarzda qo'llashi, shuningdek manfaatdor shaxslarga imkon qadar kamroq qiyinchilik tug'dirishi lozimligi alohida qayd etilgan. Jinoyat kodeksida ham jazoni adolatli qo'llash yuzasidan mutanosiblikka doir qoida bor: Kodeksning 7-moddasi 3-qismiga ko'ra **"jazolashdan ko'zlangan maqsadga yengilroq choralarni qo'llash orqali erishib bo'lmasa, faqat shundagina og'irroq jazo tayinlanishi mumkin"**. Bu norma jinoiy jazolar tizimida haddan tashqari og'ir jazo qo'llanmasligini kafolatlovchi mutanosiblik qoidasidir.

Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksning 227-moddasi 2-qismida qamoqda ushlab turish muddati tayinlanadigan jazo muddatiga mutanosib ravishda

kiritilishi belgilangan bo'lsa, Jinoyat-ijroiya kodeksining 71-moddasi 5-qismida mahkumlarga nisbatan maxsus vositalarni qo'llashda ularning turlari va intensivligi huquqbuzarlik xususiyati va shaxsning xatariga mutanosib bo'lishi, shuningdek **maxsus choralar mumkin qadar kam zarar yetkazishi lozimligi** qayd etilgan. Ko'rinib turibdiki, ayrim normativ hujjatlarimizda mutanosiblik tamoyili bevosita yoki mazmunan ifodalangan edi, ammo ilgari bular tarqoq holda bo'lib, yagona konstitutsiyaviy mezonga aylantirilmagan edi. Endilikda Konstitutsiyaviy darajadagi ushbu prinsip barcha soha qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotiga singdirilishi talab etiladi. Mutaxassislar fikricha, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga berilgan vakolatlarni amalga oshirishda mutanosiblik **asosiy mezon** sifatida e'tirof etilishi lozim, ya'ni shaxsga nisbatan qo'llanadigan chora uni qo'llayotgan maqsadga mos kelishi va insonning imkoniyatlarini haddan ziyod cheklamasligi shart. Bu talab qonun ustuvorligi tamoyilining bir qismi sifatida qaralmoqda.

O'tgan vaqt davomida ayrim qonun hujjatlarimizdagi sanksiyalar va chora-tadbirlar mutanosiblik tamoyiliga to'la mos kelmaydigan holatlarni ham ko'rdik. Ba'zi hollarda davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan qo'llanilgan chora shaxs uchun ortiqcha yuk va adolatsizlikka olib kelgan holatlar ham bo'ldi. Masalan, fuqaro ipoteka kreditidan atigi 3 million so'm qarzini to'lay olmaganligi uchun bank sudga murojaat qiladi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, da'vo to'lanmagan butun qarz qismiga (taxminan 250 million so'm) qo'yiladi. Sud esa qarzdordan kredit shartnomasini bekor qilish va 10 million so'mdan ortiq davlat boji undirish haqida qaror chiqaradi. Natijada 3 mln. qarzni to'lashga qurbi yetmagan fuqaro 10 mln. so'mlik boj to'lash majburiyatiga tushib qoladi. Bu holat

aniq ko'rsatadiki, sud tomonidan qo'llangan huquqiy ta'sir chorasini qo'yilgan maqsadga erishish uchun mutanosib deb bo'lmaydi. Asosiy maqsad bankning qarzni undirish huquqini ta'minlash edi, biroq qarzdorga bundan ham og'irroq yuklama yuklandi.

Yana bir misol soliqni undirib olish maqsadida tadbirkorning mol-mulkini xatlash, bank hisobvarag'ini to'sxat qilish, faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki litsenziyasini bekor qilish kabi choralarning ba'zan fuqaro va tadbirkorlar imkoniyatlariga nomutanosib ravishda tatbiq etish holatlariga ham duch kelgan edik. Qarzdorligi uchun fuqaroning chet elga chiqishini taqiqlash amaliyotida ham unga nisbatan qo'llangan taqiq ko'pincha qarzdorning huquqlarini haddan ziyod cheklashi mumkinligi unutib qo'ymaslik kerak.

Endilikda Konstitutsiya darajasida mutanosiblik tamoyilining mustahkamlanishi amaliy muammolarni hal etish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni barcha qonunchilik hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyoti ushbu prinsipga muvofiqlashtirilishi lozim bo'ladi. Shu asosda ayrim sohalarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirishlar kiritila boshladi. Masalan, 2023-yil 4-iyulda qabul qilingan qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan jarima sanksiyasi yengillashtirildi va ushbu modda yangi qoidalar bilan to'ldirildi. Ya'ni ijro ujjatini bajarmaganlik uchun solinadigan jarima undiriladigan summa miqdoridan oshmasligi kerakligi mustahkamlandi. Bu o'zgarish yuqorida keltirilganidek, qarzdorga asossiz ortiqcha jarima yuklanmasligini ta'minlaydi.

Shuningdek, 2025-yil mart oyida esa Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Ma'muriy javobgarlik kodeksiga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi qonun loyihasini

birinchi o'qishda qabul qildi. Mazkur loyihada ayrim huquqbuzarliklar bo'yicha **keraksiz ma'muriy jarima sanksiyalarini bekor qilish** va shu orqali mutanosiblik tamoyilini ta'minlash ko'zda tutilgan. Qonun loyihasi izohida ta'kidlanganidek, yangilangan Konstitutsiyaga muvofiq huquqiy choralar qonunda belgilangan maqsadga erishish uchun yetarli bo'lmog'i lozim. Shu asosda fuqarolarning huquq va erkinliklariga nomutanosib ta'sir ko'rsatayotgan bir qator jarimalarni bekor qilish taklif etilgan.

Xalqaro doiraga yuzlanadigan bo'lsak, xalqaro huquq amaliyotida ham ushbu prinsip keng qo'llaniladi. Xususan, ko'plab demokratik davlatlarda har qanday cheklov yoki sanksiya **“zarur bo'lgan eng yumshoq chora”** tamoyiliga asoslanadi – ya'ni muammoni hal qilish uchun eng kam darajada huquqni cheklovchi usul tanlanadi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarda, xususan BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktida va Yevropa Inson huquqlari Konvensiyasida, huquqlarni cheklash faqat qonuniy maqsad yo'lida zarur bo'lgan doirada amalga oshirilishi lozimligi belgilangan. Masalan, Yevropa Inson huquqlari sudining yurisprudensiyasida har bir cheklov **“demokratik jamiyatda zarur”** va **“kuzlangan maqsadga mutanosib”** bo'lishi shartligi ta'kidlangan. Ayrim mamlakatlar konstitutsiyalarida ham bunday me'yorlar bor: Germaniyaning Asosiy Qonunida davlat aralashuvi me'yorlari **“verhältnismäßig”** (ya'ni, mutanosib) bo'lishi talab qilinadi.

Konstitutsiyamizga kiritilgan mutanosiblik tamoyili ana shu **xalqaro standartlarga** mos keladi deyishimiz mumkin. Konstitutsiyaviy islohotlarni muhokama qilish jarayonida 190 ga yaqin davlat konstitutsiyalari va 400 dan ziyod xalqaro hujjatlar o'rganilgani, ilg'or tajribalar inobatga olingani ma'lum

qilingan. Fikrimizcha, mutanosiblik tamoyili bugungi kunda nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro huquqning ham ajralmas qismiga aylanganib ulgurgan.

Xulosa qilib aytganda Konstitutsiyamizga kiritilgan **mutanosiblik tamoyili** davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qilish sohasida **inson manfaatlarini oliy o‘ringa qo‘yish** yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Endilikda davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan har qanday huquqiy chora qat’iy konstitutsiyaviy mezonga – adolat va maqsadga muvofiqlik mezoniga mos bo‘lishi shart.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.06.2025-y., 03/25/1070/0536-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.10.2025-y., 03/25/1092/0976-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.11.2025-y., 03/25/1095/1036-son.
5. Shakurov R. “Milliy qonunchilikda Konstitutsiyaviy mutanosiblik prinsipining joriy etilishi”, Yuristlar malakasini oshirish markazi sayti.

6. Primov F. “Insonga qo‘llanadigan huquqiy ta’sir choralari adolatli bo‘lishi kerak”, Xabar.uz sayti.